



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGI DIREKTORINING
B U Y R U G‘ I**

2025-yil 5-avgust

325 -son

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi
PF–117-son Farmoni ijrosini tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 25-iyuldagi PF–117-son Farmonida Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga yuklatilgan vazifalar ijrosini so‘zsiz ta‘minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 25-iyuldagi PF–117-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda – Farmoni) **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. Mazkur Farmonga muvofiq:

a) davlat organlari va tashkilotlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashmalari hamda boshqa tashkilotlarda (keyingi o‘rinlarda – davlat organlari va tashkilotlar) **ijro intizomini tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari** belgilanganligi;

Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning **ijro holatini baholash amaliyoti joriy etilishi;**

b) 2025-yil 1-sentabrdan boshlab:

Hisob palatasi, Adliya vazirligi hamda **boshqa vazirlik va idoralar vakillaridan** iborat Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida **hududlarda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini o‘rganib borish bo‘yicha ishchi guruhlar** (keyingi o‘rinlarda – ishchi guruhlar) tashkil etishga ruxsat etilganligi va ishchi guruhlarning asosiy vazifalari belgilanganligi;

davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomiga mas‘ul tarkibiy bo‘linmalar **alohida tuzilma sifatida bevosita birinchi rahbarlar bo‘ysunuviga o‘tkazilishi;**

davlat organlari va tashkilotlarning **ijro intizomiga mas‘ul tuzilmasi xodimlarining Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Adliya vazirligida reja-jadval asosida har uch yilda bir marotaba malakasini oshirish** amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

d) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari (kadr, moliyaviy-xo‘jalik va boshqa idoraviy- tashkiliy masalalariga oid farmoyishlardan tashqari) va **topshiriqlari ijrosini “ijro.gov.uz” ijro intizomi** idoralararo yagona elektron tizimi (keyingi o‘rinlarda – Tizim) orqali nazorat qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

bunda, mazkur turdagi farmoyishlar va topshiriqlar ijrosini nazorat qilish Tizimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari **ijrosini nazorat qilish tartibida** amalga oshirilishi;

e) davlat organlari va tashkilotlarning ijro intizomiga mas’ul tarkibiy bo‘linmalarining **asosiy faoliyat yo‘nalishlari** belgilanganligi;

bunda, davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomiga mas’ul tarkibiy bo‘linmalar xodimlariga funksional majburiyati bilan **bog‘liq bo‘lmagan vazifalar yuklatilishiga** yo‘l qo‘yilmasligi;

f) 2025-yil 1-oktabrdan boshlab:

ijro intizomi to‘g‘risidagi tegishli ma’lumotlarni davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek Adliya vazirligining **veb sahifalariga joylashtirib, har oyda ma’lumotlarni yangilab borish** amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

har chorakda davlat organlari va tashkilotlarning rahbarlari qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari **ijrosi holati bo‘yicha keng jamoatchilikka hisobot berishi tartibi** joriy qilishi;

g) qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarga muvofiq ishlab chiqilishi belgilangan normativ-huquqiy hujjatlar o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilganidan so‘ng, **ularni qabul qilgunga qadar bo‘lgan bosqichlar qo‘shimcha ravishda** Tizimda nazoratga olinishi;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish va (yoki) tasdiqlash to‘g‘risidagi topshiriqlar **ushbu hujjatlar belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan** so‘ng nazoratdan chiqarilishi;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlardagi **raqamlashtirishga oid topshiriqlar** ijrosi Tizimda **Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishilgandan so‘ng to‘liq bajarilgan deb hisoblanishi**;

ijro muddati **uch oy va undan oshadigan** topshiriqlarni nazorat qilishda **oralik nazorat mexanizmi** joriy etilishi, bunda, mas’ul ijrochi topshiriq muddatining teng yarmida oraliq ma’lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar bilan birga Tizimga kiritishi;

h) 2025-yil 1-oktabrga qadar:

sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalangan holda Tizimga kiritilgan topshiriqlarning **takroriyligini aniqlash** hamda ijro muddati yaqinlashayotgan topshiriqlar to‘g‘risida davlat organlari va tashkilotlarning birinchi rahbarlariga **avtomatik ravishda xabarnoma yuborish** amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo‘yicha kiritilayotgan ma’lumotlarning haqqoniyligi va asoslilikini “ijro.gov.uz” tizimi orqali tekshirish

imkoniyatini ta'minlash uchun davlat organlari va tashkilotlarning axborot tizimlari Tizimga **bosqichma-bosqich integratsiya qilinishi;**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qarorining 6-ilovasi bilan tasdiqlangan Tizim orqali qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini tashkil etish tartibi to'g'risidagi **Nizomi yangi tahrirda bayon etilganligi;**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 14-yanvardagi PQ–4112-son qaroriga muvofiq, Agentlik direktoriga zarur hollarda, boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy soni doirasida Agentlik markaziy apparatining tasdiqlangan tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish huquqi berilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 25-yanvardagi PF–14-son Farmoniga muvofiq vazirlik va idoralar rahbarlariga, zarur hollarda, mazkur Farmonning ilovasida keltirilgan boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni doirasida tegishli tizim tashkilotlarining tuzilmalariga o'zgartirishlar kiritish huquqi berilganligi **qayd etib o'tilsin.**

3. Quyidagilar:

Farmonda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha Davlat aktivlari agentligining chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq:

Davlat aktivlari agentligi markaziy apparatining tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq **tasdiqlansin.**

Davlat aktivlari agentligi markaziy apparatining tuzilmasidagi Strategik rejalashtirish, tarkibiy va hududiy bo'linmalar bilan ishlash bo'yicha yig'ma axborot-tahlil boshqarmasining Ijro intizomi nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limi quyidagi shtat birliklaridan iborat bo'lgan, bevosita Davlat aktivlari agentligi direktoriga bo'ysunuvchi alohida **mustaqil tarkibiy bo'linma sifatida** tashkil etilsin:

bo'lim boshlig'i – 1 shtat birligi (budjet);

bosh mutaxassis – 2 shtat birligi (2 ta budjet);

yetakchi mutaxassis – 1 shtat birligi (budjetdan tashqari).

4. Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasini yuritish boshqarmasi (**G'afurov**), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (**Fazilov**) bilan birgalikda, Davlat aktivlari agentligi markaziy apparatining shtatlar jadvaliga mazkur buyruqdan kelib chiqadigan o'zgartirishlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini amalga oshirsin.

5. Ijro intizomi nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limi (**Sultanova**), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (**Fazilov**) bilan birgalikda, bo'limning nizom va lavozim yo'riqnomalari ishlab chiqilishini va tegishli o'zgartirishlar kiritilishini ta'minlasin.

6. Davlat aktivlari agentligi markaziy apparati, hududiy boshqarmalari hamda idoraviy mansub tuzilmalari **rahbarlari doimiy ravishda** ushbu Farmonda belgilangan talablarning **so‘zsiz, o‘z vaqtida va natijali bajarilishi uchun shaxsan javobgar ekanligi to‘g‘risida ogohlantirilsin**, bunda ijro intizomini ta‘minlash ularning **birinchi navbatdagi vazifalaridan biri ekanligi belgilab qo‘yilsin**.

7. Ijro intizomi nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi **(Sultanova) doimiy ravishda:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari va topshiriqlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlaridagi topshiriqlar Tizimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari **ijrosini nazorat qilish tartibida** amalga oshirilishini alohida nazorat qilinishini;

har hafta juma kuni kelgusi va **har oyning 25-sanasiga qadar** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlarida **belgilangan vazifalarning ijro holati to‘g‘risidagi** hamda **topshiriqlarni kechiktirilishiga yo‘l qo‘ygan mas’ullarga nisbatan intizomiy jazo choralari ko‘rish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni** Davlat aktivlari agentligi direktoriga kiritib borilishini;

har oyning 25 sanasiga qadar, Tizimda nazoratga olingan har oylik topshiriqlarni Davlat aktivlari agentligi tizimida ta‘minlash bo‘yicha “yo‘l xarita” hamda “Kunbay kalendar grafiklar”ni ishlab chiqib, mas’ul tarkibiy bo‘linmalar bilan kelishgan holda tasdiqlash uchun Davlat aktivlari agentligi direktoriga kiritilishini;

Ijro intizomida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishda xodimlarga **amaliy yordam ko‘rsatish** va **topshiriqlarni** barvaqt hamda sifatli tarzda bajarilishi **bo‘yicha qat’iy nazorat o‘rnatilishini ta‘minlasin**.

8. Direktor o‘rinbosari **(Miraliyev) uch kun muddatda**, Davlat aktivlari agentligining markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalari xodimlariga mazkur farmonni mazmun mohiyatini tushuntirish hamda Davlat aktivlari agentligi tizimida topshiriqlar ijrosini barvaqt hamda sifatli tarzda ta‘minlash bo‘yicha o‘quv seminari o‘tkazilishini ta‘minlasin.

9. Davlat aktivlari agentligi direktorining o‘rinbosarlari **(Xusanov, Miraliyev, Kadirov)** o‘zlariga biriktirilgan mas’ul tarkibiy bo‘linmalar bilan birgalikda:

Farmon va mazkur buyruqning ijrosini **samarali tashkil etsin va ijrosini doimiy muhokama qilib**, ijro uchun mas’ul tarkibiy bo‘linmalar **faoliyatini muvofiqlashtirib borsin**;

buyruqning **o‘zlariga biriktirilgan mas’ul tarkibiy bo‘linmalar tomonidan bajarilishini shaxsiy nazoratiga olsin**, ularning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha **barcha zarur va tezkor choralarni ko‘rsin**;

topshiriqlarni to'liq bajarmagan, kechiktirib bajargan yoki umuman ijrosini ta'minlamagan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash bo'yicha Davlat aktivlari agentligi direktoriga taklif kiritsin.

10. Ijro intizomi nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limi (**Sultanova**) mazkur buyruq nusxalarini, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalari hamda idoraviy mansub tuzilmalariga yetkazilishini ta'minlasin.


11. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Direktor



A. Ortikov

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi markaziy apparatining tuzilmasi



1. Boshqaruv xodimlari umumiy soni – 139 nafar, shundan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan boshqaruv xodimlarining umumiy soni – 99 nafar.
2. Texnik va xizmat ko‘rsatish xodimlari soni o‘rnatilgan me‘yorlarga muvofiq belgilanadi.
* Mazkur shtat birliklaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori qabul qilinganidan so‘ng qisqartiriladi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning
qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmonida belgilangan topshiriqlar
ijrosini ta'minlash yuzasidan Davlat aktivlari agentligining
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	5. b) band Davlat organlari va tashkilotlarning ijro intizomiga mas'ul tuzilmasi xodimlarining Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Adliya vazirligida reja-jadval asosida har uch yilda bir marotaba malakasini oshirish amaliyoti yo'lga qo'yilsin.	Davlat aktivlari agentligi tizimining ijro intizomiga mas'ul tuzilmalari xodimlarining Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi hamda Adliya vazirligida tasdiqlangan reja-jadval asosida malakasini oshirilishini ta'minlash.	Reja jadvalda ko'rsatilgan muddatlarda	F.Fazilov D.Sultanova Nazorat: A.Miraliyev M.Kadirov
2.	7. a.-band. Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlashda jamoatchilik nazoratini o'rnatish maqsadida 2025-yil 1-oktyabrdan boshlab: ijro intizomi to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarni davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek Adliya vazirligining veb sahifalariga joylashtirib, har oyda ma'lumotlarni yangilab borish amaliyoti yo'lga qo'yilsin.	Ijro intizomi to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarni Davlat aktivlari agentligi veb sahifasiga joylashtirilishini hamda Adliya vazirligining veb sahifalariga joylashtirib borish uchun Adliya vazirligiga taqdim etib borilishini ta'minlash.	2025-yil 5-oktabriga keyinchalik har oyning 5-sanasiga qadar	Axborot xizmati bo'limi, D.Sultanova, Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari Nazorat: N.Xusanov, A.Miraliyev

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
3.	7. b.-band. har chorakda davlat organlari va tashkilotlarning rahbarlari qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari ijrosi holati bo'yicha keng jamoatchilikka hisobot berishi tartibi joriy qilinsin.	Davlat aktivlari agentligi rahbariyatining qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat hujjatlari ijrosi holati bo'yicha keng jamoatchilikka hisobot berishini tashkil etilishini ta'minlash.	Har chorak yakuni bo'yicha	Axborot xizmati bo'limi, D.Sultanova, Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari Nazorat: N.Xusanov, A.Miraliyev
4.	10. a-band Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq: Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarga muvofiq, ishlab chiqilishi belgilangan normativ-huquqiy hujjatlar o'rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilganidan so'ng ularni qabul qilgunga qadar bo'lgan bosqichlar qo'shimcha ravishda "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratga olinadi idoraviy normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish va (yoki) tasdiqlash to'g'risidagi topshiriqlar ushbu hujjatlar belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng nazoratdan chiqariladi.	Davlat aktivlari agentligi tomonidan ishlab chiqilgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarga muvofiq ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar o'rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilgandan, shuningdek, idoraviy normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish va (yoki) tasdiqlash to'g'risidagi topshiriqlar ushbu hujjatlar belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng nazoratdan chiqarilishini ta'minlash.	doimiy ravishda	D.Sultanova, T.Nabiyev Nazorat: N.Xusanov, A.Miraliyev

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
5.	12.a-band sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalangan holda Tizimga topshiriqlarni kiritishda ularning takroriyligini aniqlash hamda ijro muddati yaqinlashayotgan topshiriqlar to'g'risida davlat organlari va tashkilotlarning birinchi rahbarlariga avtomatik ravishda xabarnoma yuborish amaliyoti yo'lga qo'yilishi;	Sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalangan holda "Ijro.gov.uz" tizimida ijro muddati yaqinlashayotgan topshiriqlar to'g'risida Davlat aktivlari agentligi rahbariyatiga avtomatik tarzda avtomatik ravishda xabarnoma yuborish choralarini ko'rish.	2025-yil 1-oktabrga qadar	F.Sulaymonov Nazorat: N.Xusanov, A.Miraliyev
6.	12. b-band qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha kiritilayotgan ma'lumotlarning haqqoniyligi va asoslilikini "Ijro.gov.uz" tizimi orqali tekshirish imkoniyatini ta'minlash uchun davlat organlari va tashkilotlarning axborot tizimlari "Ijro.gov.uz" tizimiga bosqichma bosqich integratsiya qilinsin.	Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha kiritilayotgan ma'lumotlarning haqqoniyligi va asoslilikini Tizim orqali tekshirish imkoniyatini ta'minlash uchun Davlat aktivlari agentligining axborot tizimini "ijro.gov.uz" tizimiga integratsiya qilinishi ta'minlasin.	2025-yil 1-oktabrga qadar	F.Sulaymonov Nazorat: N.Xusanov, A.Miraliyev